

INFLATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING DAVLAT IQTISODIYOTIGA TA'SIRINI OLDINI OLISH

Xurramov Davlatbek

Termiz davlat universiteti

davlatbekxurramov2004@gmail.com

Abstract: Insoniyat uzoq yillardan beri rivojlanib kelar ekan, narx siyosati, soliq siyosati va pul kredit siyosati mexanizmlarini tartibga solishga harakat qilib keladi. Nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda kishilar o'zlari ishlab topayotgan pulga sotib olayotgan narsalari va foydalanayotgan xizmatlari miqdorining ko'p xollarda vaqt o'tishi bilan kamayib borishidan aziyat chekib kelishmoqda. Inflatsiya iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Inflatsiyani jilovlash, yumshatish uchun turli mamlakatlarda va yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada inflatsiya haqida boshlang'ich tushunchalar va inflatsiyani bartaraf etish uchun dunyo va milliy andozalar va siyosatlarni ko'rib chiqamiz

Kalit so'zlar: inflatsiya, devalvatsiya, sudralib yuruvchi, shiddat bilan o'suvchi inflatsiya va giperinflatsiya, talab va taklif inflatsiyasi, Markaziy bank, soliq tizimi va pul-kredit siyosati

Kirish

Bilamizki mamlakat iqtisodiyoti va aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir nechta omillar mavjud, bular bor ekan iqtisodiyot rivojlanishida og'ishlar vujudga keladi bu salbiy ta'sir etuvchi omillarning eng asosiylaridan biri inflatsiya hisoblanadi. Ushbu iqtisodiy davrda tovar va xizmatlar qiymatini oshirish degani. Inflyatsiya mohiyati shundan iboratki, ayni paytda uning boshlanishidan oldin bir xil pulga nisbatan mol-mulkni kamroq sotib olish mumkin bo'ladi. Moliyani sotib olish kuchi kamayganligini aytish mumkin va ular o'z qiymatining bir qismini yo'qotib qo'ydi. Bozor iqtisodiyotida bunday jarayon narxlarning ko'tarilishida o'zini namoyon qilishi mumkin. Ma'muriy choralar bilan narxlash bir xil bo'lib qolmoqda, ammo mahsulot guruhlari etishmasligi bo'lishi mumkin.

Asosiy qism

Inflyatsiya termini – lotincha inflation so'zidan olingan bo'lib shishirilgan, bo'rttirilgan, ko'pchigan degan ma'nolarni anglatadi. Inflyatsiyaning iqtisodiy mohiyati muomaladagi naqd pullarning sotib olish qobiliyatining pasayishi, tovarlar va xizmatlarning bahosini o'sib borishini anglatadi. Bu so'z XIX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatilgunga qadar, u tibbiyotda xavfli o'sma kasalligini ifodalashda qo'llanilgan. Tarix haqiqatdan ham bu so'zning har tomonlama xavfli ekanligini ko'rsatdi. Chunki inflyatsiya qandaydir

alohida olingan bozorlarda tovarlar va xizmatlar narxining o'sishidagina iborat bo'lmasdan, bu umumiy iqtisod uchun xavfli hodisadir. Inflyatsiya so'zining iqtisodiy o'girtmasi – muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi. Agar tarixga e'tibor beradigan bo'lsak, urush va boshqa ofatlar sababli boshqa xarajatlarning oshib ketishi, inflyatsiya bilan uzviy bog'liq. Masalan, Angliyada kuchli inflyatsiya XIX asrning boshida Napoleon bilan urush davrida, Fransiyada – fransuz revolyutsiyasi davrida, Rossiyada XIX asrning o'rtalarida namoyon bo'lgan. Germaniyada juda yuqori su'atlardagi inflyatsiya 1923 – yillarda bo'lib, muomaladagi pul massasi 496 kvintillion markagacha yetgan va pul birligi trillion marta qadrsizlangan. Bu tarixiy misollar ko'rsatadiki, inflyatsiya hozirgi davr jarayoni bo'lmasdan, balki tarixan mavjud bo'lgan jarayon bo'lib hisoblanadi. Inflyatsiya va uning rivojlanishi alohida olingan mamlakatda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Hozirgi davr inflyatsiyasi, o'tgan davr inflyatsiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega.

Inflyatsiya – bu mamlakat ichida milliy valyuta xarid qobiliyatining pasayishi jarayoni bo'lib, avvalo narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishida ifodalanadi. Inflyatsiya narxlar indeksi yordamida o'lchanadi (eng mashhuri – iste'mol narxlar indeksi, INI).

Ba'zida inflyatsiyani **devalvatsiya** – boshqa milliy valyutalar (asosan yetakchi jahon valyutalari)ga nisbatan milliy valyuta qiymatining pasayishi bilan adashtiradilar. inflyatsiya va devalvatsiya bir-biriga faol ta'sir ko'rsatsa-da (qanday ta'sir ko'rsatishi haqida quyiroqda so'z yuritamiz), baribir, boshqa-boshqa hodisalardir.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keladigan nomutanosibliklar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi va natijada pul muomalasi qonunining buzilishi oqibatida pul birligining qadrsizlanishiga inflyatsiya deb aytiladi.

Xalqaro amaliyotda bozorda tovarlar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga qarab inflatsiyani bir necha turlarga bo'lib qaraladi:

Sudraluvchi inflatsiya. Baholarning o'rtacha yillik o'sishi 5-10% dan oshmaydi. Inflatsiyaning bu turi ko'proq rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab baholar oshishi 3-4% atrofida ham bo'lishi mumkin. Buinflatsiya aksincha ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishni rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Pulning qiymati barqarorligidagi o'zgarish sezilmasligi mumkin.

Shiddatli inflatsiya. Baholarning o'rta yillik o'sishi 10-100% (ba'zida 200% gacha) bo'lishi mumkin. Inflatsiyaning bu turi rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq uchraydi.

Giperinflatsiya. Baholarning o'sish sur'atlari yiliga 200% dan oshib ketadi. Buinflatsiya mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining inqirozli davriga mos keladi va u

iqtisodiyot tarkibiy qismlarining o'zgarishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda XVF baholar oyiga 50% dan oshgan vaqtda bu giperinflatsiya deb qabul qilgan. Giperinflatsiya davrida baholar kun sayin oshib boradi va baholar bilan ish haqi o'rtasidagi farq juda yuqori bo'ladi. Aholining yashash sharoiti qiyinlashadi, korxonalar faoliyati yomonlashadi. Xo'jalik faoliyati, bozor faoliyatida naturallashtirish avj oladi.

Birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko'tarilishi ko'rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar ishlab chiqarishning to'lov qobiliyatiga ega talab o'sishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko'payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo'shimcha pul emissiyasi, investitsiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib keti-shidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq xarid etish, mamlakatga qadsizlangan chet el valyutasining ko'plab kirib kelishi va boshqa omillar inflatsiyani yuzaga keltiradi. I. jarayoni narxlarning o'sishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir. Uzoq vaqt mobaynida tovar va xizmatlar narxlari barqaror bo'lgan, rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning o'rta muddatli ko'rsatkichi 2 foiz atrofida, ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlar uchun esa nisbatan yuqoriroq, taxminan 2-6 foiz atrofida bo'lishi maqbul deb topilgan.

Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo'lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon.

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin:

Talab inflyatsiyasi

Inflyatsiyaning bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxlari o'sadi.

Taklif inflyatsiyasi

Inflyatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi.

Inflatsiya har yili rivojlangan davlatlarda o'rtacha 7 % tashkil etadi. Barcha iqtisodiy aloqalar inflyatsiyani hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Oltin va kumush muomalada bo'lgan sharoitlarda Inflatsiya yuz bermaydi, chunki ular boylik belgisi emas, balki real boylikdir. Pullarning zarur miqdori uning xazinalik vazifasi orqali boshqarib turiladi. Agar tangalar xarid uchun zarur bo'lganidan ortiq bo'lsa, ortiqcha pul xazina sifatida to'planadi va bunda ular qadrsizlanmaydi. Bozorda tovarlar ko'payib pulga ehtiyoj bo'lganda ular jamg'armadan olinib yana savdo muomalalarida qatnashadi. Qog'oz pullar real boylik emas, balki uning ramzidir. Qog'oz pullar boylik vazifasini o'tay olmaydi va ularning ortiqchaligi I.ga sabab bo'ladi. Shu sababli pul jamg'armalarini ko'chmas mulk yoki qimmatbaho buyumlar sotib olish yo'li bilan saqlash ishonchliroq hisoblanadi.

Inflyatsiya oqibatlari

Eng avvalo pul birligi qadrsizlanadi;

Tovarlardagi narxlar mutanosibligi buziladi;

Xaridor va sotuvchilar u yoki bu qarorni aniq qabul qilishga ikkilanadilar;

Katta investitsiyalar qilish xavf-xatari oshadi;

Tadbirkorlar qisqa muddatli qarorlar va harakatlar bilan cheklanib Shaxsiy jamg'armalar o'z qadrini yo'qotadi;

Aktsiyalar, obligatsiyalar, cheklar, veksellar, sertifikatlar, sug'urta polislarining real qiymati pasayadi. Kam ta'minlangan aholi yanada qashshoqlashadi;

Xullas, inflyatsiya bozor jarayonini tartibsizlantirib, ham ishlab chiqarishni, ham iste'molni izdan chiqaradi, aholining turmush darajasini keskin pasaytiradi, jamiyatda sotsial tanglikni vujudga keltiradi.

Jahonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida inflatsiyaga qarshi kurash olib borishda juda katta nazariy va amaliy tajriba to'plangan. Inflatsiyani butunlay yo'qotish imkoniyati yo'q. Chunki uni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan omillarni (ichki va tashqi, pullik va pulsiz) to'liq yo'qotish mumkin emas. shuning uchun hozirgi davrda eng asosiy maqsad inflatsiyaning butunlay yo'qotish emas, balki uni boshqaruvchan qilish va salbiy iqtisodiy – ijtimoiy oqibatlarini zaiflashtirish hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlarida xukumat tomonidan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda inflatsiyaga qarshi turli antiinflatsiya siyosatini ishlab chiqaradilar va uni amalga oshiradilar. Antiinflatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyasion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Inflyatsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishni uzoq muddatli va qisqa muddatli siyosat bilan qo'shib olib borish kerak. Uzoq muddatli siyosat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Soliq tizimini takomillashtirish hamda davlatning xarajatlarini kamaytirish hisobiga byudjet taqchilligini qisqartirish choralarini ko'rish;

Pul muomalasi sohasidagi tadbirlar, xususan pul massasi o'sishining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori me'zonlarini, pul massasi o'sishining har yilgi qat'iy limitlarini belgilash;

Inflyatsiyani avj oldiruvchi tashqi omillarni bartaraf etish, xususan hukumat byudjet taqchilligini moliyalashtirish maqsadida chet eldan qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni olish yo'li bilan iqtisodiyotga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish, bu kreditlar va qarzlarni konvertatsiyalash hamda shu summaga milliy valyutaning qo'shimcha massasini chiqarish; Inflyatsiyaga qarshi qisqa muddatli siyosat inflyatsiya sur'atlarini vaqtincha pasaytirib turishga qaratilgan bo'lib, u quyidagilarni qamrab oladi:

Jami talab oshmagan holda tovarlar va xizmatlarni qo'shimcha ishlab chiqarishni rag'batlantirish hisobiga, iste'mol tovarlarini ko'plab miqdorda import qilish, korxonalarining kata miqdordagi aksiyalarini sotish hisobiga jami taklifni kengaytirish; Sug'urtalash va jamg'arishni rag'batlantirish.

Inflatsiyaning yuqori sur'atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta'minlashi kerak:

-samarali soliq tizimini va davlat xarajatlarining baaqarorligini; -pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o'sish sur'atlarini;

-“inflatsiyani import qilish” ga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda inflatsiyaga qarshi kurashish va milliy pul tizimini mustaxkamlash uchun asosan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmogda:

- raqobatbardosh, yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish va uni rivojlantirish maqsadida davlat strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish;

- xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining tarkibini o'zgartirish va unda zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni joriy etish;

-tijorat banklarining investitsiya va kredit faoliyatini rag'batlantirish;

- davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llabquvvatlash;

- mamlakat ichida mahsulotlar, valyuta, kredit, ko'chmas mulk, mehnat va qimmatli qog'ozlarining yagona bozorini shakllantirish hamda uni rivojlantirish;

- pul-kredit siyosatini iqtisodiyotning rivojlanishi holatiga asosan o'zgartirib turish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni eksport qilishni rag'batlantirish

- davlatning strategik oltin-valyuta zahiralarni chuqur tahlil etish va ulardan oqilona foydalanish. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish ma'lum muddat talab etadi. Oqilona ishlab chiqilgan

antiinflasyon siyosatni amalga oshirish pirovard natijada milliy pul birligini musiahkamlanishiga va pul tizimini barqarorlashuviga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agar biz mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholi turmush tarzi yaxshilanishini xohlar ekanmiz boshqa omillar qatori inflatsiya darajasini ham oshib ketishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Agar inflatsiyaga qarshi chora tadbirlar ko'rmasak aholi sotib olayotgan Tovar va mahsulot qiymati yildan yilga kamayib ketadi va bu aholi turmush tarzida farovonlikni izdan chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ifn.dots. I.Sayfiddinov —Inflyatsiya va uning turlari, pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari
2. T.M.Qoraliyev —Pul va banklar darslik
3. <https://renessans-edu.uz/files/books/Makroiqtisodiyot.pdf>
4. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Inflatsiya>
6. <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/639/836/ea6/639836ea661da1720760.pdf>
7. <https://www.coursehero.com/file/217079923/004pdf/>